

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI
Energetika va sa'noatni axborotlashtirish fakulteti
Informatika va axborot texnologiyalari kafedrası

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

*MAVZU: ArchiCAD grafik muharririda ob'ektlar bilan
ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot
yaratish va qo'llash.*

Topshirdi:

Sh. Davlatov

BMI rahbari:

Z. Qodirov

KIRISH

Mamlakatda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish maqsadida 2018 yil 19 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5349-sonli farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmonda, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda o'quv jarayonining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sur'atlari bilan uzluksiz aloqasini ta'minlashni hisobga olgan holda mustaqil ravishda o'quv rejalar va dasturlar, bitiruvchilar uchun malaka talablarini ishlab chiqish va tasdiqlash, hamda professor o'qituvchilar tarkibi mehnatini o'qitishning kredit tizimi shartlaridan kelib chiqib faqat ta'limga xos tadbirlar asosida ish vaqti hisobga olinishiga asoslangan holda mustaqil normalashni amalga oshirish, shuningdek, pedagog xodimlar tomonidan ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning bajarilishini rag'batlantirish huquqi berish to'g'risida ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu farmonga ko'ra kadrlar tayyorlash sohasini takomillashtirish orqali mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish O'zbekistonda demokratik davlat, bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli fuqarolik jamiyat qurishning muhim shartlaridan biri sifatida belgilanadi.

Kundalik turmushda turli ko'rinishdagi axborotlar masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli (audio), rasmlil, video va boshqa axborotlar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Har bir turdagi axborot bilan ishlash (yig'ish, saqlash va h.k.) uchun turli texnik xarakteristikalarga ega bo'lgan axborot qurilmalari kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida o'qitishni kompyuterlashtirishga katta e'tibor berilmoqda, chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O'qitishni kompyuterlashtirish

(axborotlashtirish) yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ta’lim tizimining barcha pog’onalarda axborotlashtirishni yetakchi bo’g’inligini ta’minlash;
- barcha sohalar bo’yicha bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirishni loyihalash va yaratish (monitoring);
- axborotlashtirish sohalarida me’yoriy bazalarni yaratish (ilmiy-metodik birlashmalar va h.k.);
- texnik ta’minot – kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari, ularga xizmat ko’rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish;
- telekommunikatsiya tarmoqlari;
- ta’minot resurslari (dasturiy ta’minot, internetdagi axborotlar majmui, ma’lumotnomalar va h. k.).

Axborot texnologiyasidan foydalanish va uni biror-bir sohaga tatbiq etish o’z ichiga qator vazifalarni oladi. Quyida axborotlashgan faoliyat ob’ektlari haqida so’z yuritamiz.

Bunday ob’ektlarga sonlar (o’lchash va modellashtirish natijalari), matnlar, tasviriyl axborotning statistik va dinamik ifodalari, rasmlar, chizmalar va animatsiyalar, ovozli obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa) va boshqalar kiradi.

Foydalanuvchining mustaqil va ongli ravishda olib boradigan faoliyatiga axborot ob’ektlarini yaratish, zarur axborot ob’ektlarini izlash, axborotlarni yig’ish, tahlil qilish va ajratib olish, tashkillashtirish, kerakli ko’rinishda tasvirlash, axborot ob’ektlarini (matn, suhbat, rasm, o’yin va boshqa ko’rinishda) uzatish, modellashtirish, loyihalash, ob’ektlarni rejalashtirish va boshqalar kiradi.

Axborot texnologiyasi modellari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o’zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta’minoti;
- uskunaviy dasturiy ta’minot;

- virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar, musiqlar, fizik modellar, geografik xaritalar va h.k.;
- axborotlar majmui — ma'lumotnomalar, entsiklopediyalar, virtual muzeylar va h.k.;
- texnik ko'nikmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuidan tugmachalarga qaramasdan ma'lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o'zlashtirish va h. k.).

Taraqqiy etgan xorijiy davlatlar va respublikamizdagi yetakchi ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalari asosida o'qitish dasturlari tahlili sifat jihatidan yangi o'qitish vositalari bo'lib, ular an'anaviy o'qitish metodlaridan tubdan farq qilishini ko'rsatmoqda. Bunday yondashishning asosiy vositalaridan biri sifatida, kompyuterda modellashtirish nazariyasini ko'rsatish mumkin.

Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini tahrir qilish, talabalar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o'quvchi-talabalar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari bilan ishlaydigan o'qituvchilar quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari kerak:

- ma'ruza matnlari, amaliyot bilan bog'liq topshiriqlarni tayyorlash;
- uslubiy ko'rsatmalarni, nazorat savollarini, to'g'ri javoblar variantini tuzish;
- ishchi dastur va texnologik xaritani tuzish;
- bilimni nazorat qilish natijasini tahlil etish;
- ma'ruza matnlarini tahrir qilish;
- har bir mavzu bo'yicha dinamik ko'rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur etish;
- mustaqil ishlar bo'yicha o'quvchilarga nazariy va amaliy savollar yuzasidan maslahatlar berishni tashkil qilish;
- o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzular bo'yicha o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish kabi talablar qo'yiladi.

Qo'yilgan ushbu talablar bo'yicha axborot texnologiyalarining multimedia vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish pedagog-o'qituvchilarning ish faoliyatini osonlashtirib, o'quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini yanada ko'tarishga erishiladi. IIIy bilan bir qatorda, ta'lim muassasasi rahbariyatiga o'quvchilarning olgan bilimlarini, test natijalarini ko'rib borish va ularning o'zlashtirish darajasiga baho berish, o'qituvchilarning ma'ruza matnlari va boshqa mustaqil ishlariga mo'ljallangan materiallarining tayyorlash sifatiga baho berish, multimedia vositalari asosida laboratoriya ishlarini bajarish uchun kompyuterda modellashtirilgan animatsion taqdimotlar joriy etish, kursni o'zlashtirish bo'yicha uslubiy materiallarni tayyorlash uchun takliflar ishlab chiqish kabilarni amalga oshirish imkonini beradi.

Kompyuter-axborot texnologiyalari modelidan foydalanish masalasi o'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, dars jarayonida namoyish qilinishi kerak bo'lgan ob'ektning ichki, tashqi xossalarini ko'rsata olishdek muhim vazifani amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, axborot-pedagogik texnologiyalar asosida multimediali elektron darsliklar (MED) yaratish mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- differentsial va individual o'qitish jarayonini tashkil etilishi;
- o'quv jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi;
- o'zini o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi;
- o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi;
- fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishi;
- o'quvchi-talabalarga fanni o'zlashtirish uchun muhim ko'nikmalar hosil qilishi va hokazo.

Shuningdek, multimedia vositalarining amaliy tomoni, ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun

ma'lumotlar bazasini va animatsion taqdimotlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifasi. ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratish va qo'llashdan iborat.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni yechish kerak:

- ArchiCad grafik muharririning strukturaviy tuzilishini o'rganish;
- ArchiCad grafik muharririda ishlash imkoniyatlarini o'rganish;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratish;

Bitiruv ishining ob'ekti. Kasb – hunar kollejlari va oliy ta'limda o'tilayotgan fanlar uchun hozirgi kun talabiga mos o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratish bo'lib, bu o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot ArchiCad grafik muharririni mustaqil o'rganishda yordam beradi.

Mavzuning predmeti. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda ularning individual qobiliyatlarini va o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'quv – uslubiy materiallardan foydalanish bo'yicha usullar hamda tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amalda qo'llashdan iborat.

Bitiruv ishining nazariy va amaliy ahamiyati shundaki olingan ma'lumotlar, xulosa va amaliy tavsiyalardan ArchiCad grafik muharririda ob'ektlarni yaratish va ularga rang berish jarayonini o'rgatish va o'rgatishni takomillashtirishda hamda o'qituvchi va ta'lim oluvchi shaxslar bilan amaliy ish olib borishda foydalanishlari mumkin.

Bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlardan ro'yxatidan iborat.

I-BOB. TA'LIM JARAYONIDA O'RGATUVCHI ELEKTRON DASTURIY MAHSULOTLARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

1.1. Masalaning qo'yilishi, uning dolzarbligi va ahamiyati

Respublikada elektron o'quv adabiyotlar, virtual tajriba stendlar va elektron uslubiy ta'minotlaridan foydalanishga mo'ljallangan axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish, shuningdek, masofadan turib o'qitishni tashkil etish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Elektron adabiyot, virtual tajriba stendlar va elektron uslubiy ta'minotlar yaratishning ilmiy-uslubiy tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda.

Avvalo darslik – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlool g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Elektron uslubiy ta'minot, kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia (multimedia – ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida;
- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchi (talaba, tinglovchi) ni «ekran olamida» stereo nusxasi tasvirlangan haqiqiy olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Yangi asr ta'limini rivojlanish tendentsiyasi – axborot texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga keng qo'llash va tarqatishdir.

Bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri turli predmet sohasini o'z ichiga olgan bilimlar bazasini yaratish deb hisoblash mumkin. Yangi axborot texnologiyalarini ta'limga tatbiq etish ta'limda an'anaviy o'qitish jarayonidan o'quvchining o'zi ta'lim jarayonini borishini aniqlaydigan yangi jarayoniga o'tishni ta'minlaydi.

ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratish va qo'llash deb nomlangan ushbu bitiruv malakaviy ishi ham ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda asosiy topshiriqlardan biri bo'lib, uni bajarishda birinchi navbatda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar va qo'yilgan talablar tahlil etiladi.

ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratish va qo'llash deb nomlangan ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat bo'lib, ularda quyidagi masalalar hal etiladi:

- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari tahlil qilinadi;
- an'anaviy bosma va o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarning umumiy jihatlari o'rganib chiqiladi;
- ta'lim jarayonida o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlardan foydalanishning imkoniyatlari o'rganib chiqiladi;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarini yaratish va qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari hamda afzalliklari o'rganib chiqiladi va tahlil etiladi;
- ta'lim serveriga o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarni joylash uchun texnologiyalarni tanlash o'rganib chiqiladi;
- Archi CAD grafik muharriri haqida va uni o'rnatish uchun shaxsiy kompyuter sistemasiga qo'yiladigan talablar tahlil etiladi;
- Archi CAD grafik muharririda ishlash asoslari: operatsiyalar va tasvirni boshqarish o'rganib chiqiladi;
- Archi CAD grafik muharririda devor vositasi bilan ishlash o'rganib chiqiladi;

- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotda foydalaniladigan dasturiy va texnik vositalar tahlil qilinadi;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratish texnologiyasi ishlab chiqiladi;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratish texnologiyasi asosida dastur yaratiladi;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotdan foydalanish yo'riqnomasi ishlab chiqiladi;
- hayot faoliyati xavfsizligi, kompyuter xonasiga qo'yiladigan talablar va dasturchining kompyuter bilan ishlaganda charchash sabablari mavzulari atroflicha o'rganib chiqiladi va tahlil etiladi.

Bitiruv ishining xulosa qismida bajarilgan ishga qisqacha tavsif berilib hal qilingan yechimni kasb xunar kollejlarda qo'llash imkoniyati ko'rsatilib va bajarilgan ishning istiqboli haqida fikrlar bayon etiladi.

Bundan tashqari bitiruv ishida foydalanilgan adabiyotlar, internet saytlari ro'yxati ko'rsatiladi va dastur matni, internetdan olingan ma'lumotlar ilova qilinadi. O'zbekistonda ta'lim tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yilishi milliy va umuminsoniy qadryatlarning barcha imkoniyatlaridan to'la va samarali foydalanishni taqazo etadi. Jahon ma'daniyatini milliy madaniyatimizga ijobiy ta'sir qilishini inkor qilib bo'lmaydi. Ta'lim tarbiya jarayonida boshqa xalqlar pedagogik merosning ijobiy tomonlaridan qanchalik foydalanmaylik baribir o'zbek milliy qadryatlari ma'naviy kamolotimizga asos bo'lib qoladi.

1.2. Ta'lim jarayonida o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlardan foydalanishning imkoniyatlari

Ta'lim tizimi uchun yaratiladigan elektron o'qitish tizimlari kamida uchta qismdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ularga ta'lim berish, mashqlar bajarish va nazorat qilish qismlarini keltirish mumkin.

ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning ta'lim berishga mo'ljallangan qismida o'quv materiallarini

taqdim etganda uning o'quvchilar tomonidan tushunish darajasiga alohida e'tibor berish kerak. Taqdim etilayotgan o'quv materiallari ta'lim oluvchilar uchun sodda, qulay, ko'rgazmali va yaxshi o'zlashtirish uchun izohli ma'lumotlar tavsiya etilgan bo'lishi, shuningdek, o'quv materiallarida kerakli ta'riflar, tayanch iboralar, kalit so'zlarga murojaat qilishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishi lozim.

Mustaqil ta'lim uchun yaratiladigan o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- fan mazmuni davlat ta'lim standartlari va o'quv maqsadlariga mos kelishi;
- mustaqil ta'lim olishni ta'minlashi;
- fan bo'yicha etarli miqdorda ma'lumotlarni o'zida jamlashi;
- fan bo'yicha mashq va masalalar bilan ta'minlashi;
- boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi;
- o'z-o'zini baholash va nazorat qilish va boshqalar.

O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlar yaratish murakkab jarayon bo'lib, ularni yaratishga bir qancha turli yo'nalishdagi mutaxassislar jalb qilinadi. Ularga fan o'qituvchilari, psixologlar, dasturchilar, dizaynerlar, kompyuter grafikasi ustalari kabilarni keltirish mumkin. Shuningdek, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlar o'quv materiallarini yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlar ta'lim oluvchilarning mustaqil tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirishga, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga, ta'lim-tarbiyani o'zaro bog'lashga, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini qo'llashda mavjud gipermatn, gipermedia, grafika, animatsiya va ovoz dasturlarining mavjudligi katta samara bermoqda. Chet ellar va respublikamizda to'plangan tajribalar tahlil qilinganda axborot texnologiyalarining pedagogik dasturiy vositalari o'qitishda yangi vositalar sifatida o'quv jarayonini jadallashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, ana'naviy o'qitish vositalaridan keskin farq qiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish kontsepsiyasiga amal qilgan holda axborot texnologiyalari asosida ishlab

chiqilayotgan o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning strukturasini quyidagi elementlarni o'zida ifodalashi lozim:

- muqova;
- mundarija;
- qisqacha annotatsiyasi;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning to'liq bayoni;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning qisqacha bayoni (masalan, sxemalar ko'rinishida);
- asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar ro'yhati;
- bilimlarni nazorat qilish mexanizmi;
- matn fragmenti bo'yicha izlash amalini bajarish;
- mualliflar ro'yhati va ular haqida ma'lumot;
- atamalar ro'yhati;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot bilan ishlash uchun ma'lumotlar tizimi.

ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning muqovasi imkoniyat darajasida chiroyli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun uni grafika va multimedia, animatsiya kabi elementlar bilan uni boyitish zarur. O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning muqovasida uning nomi, yuqori tashkilot haqida ma'lumot (masalan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi), mualliflik huquqi, yaratilgan vaqti, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotni yaratgan tashkilotning nomi (masalan, Namangan muhandislik - qurilish instituti), mualliflari haqida qisqacha ma'lumot olish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlarning ma'lum bir qismi (mualliflar haqida ma'lumot, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotni yaratgan tashkilot, mualliflik huquqi kabilar) maxsus tugmalar yordamida amalga oshiriladi. Mundarija o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning juda muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Mundarija bir tomondan etarli darajada mavzular ketma-ketligini saqlab, kerakli mavzularga tezkor ravishda murojaat qilishni ta'minlay oladigan darajada, ya'ni gipermurojaatlar bilan boyitilgan bo'lishi va ekranning bir qismida joylashishi kerak.

Bundan tashqari mundarijada tegishli amallarni bajarish uchun imkoniyat yaratilgan bo'lishi kerak. Bularga, bilimni nazorat qilish mexanizmi, o'rgatuvchi

elektron dasturiy mahsulotning ma'lum matni bo'yicha izlash amalini bajarish, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yhati, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning ihtiyoriy qismiga o'tish, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot bilan ishlashni tugatish, uning ihtiyoriy bir qismidan o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning muqovasiga qaytish imkoniyatining bo'lishi undan foydalanishni osonlashtiradi.

Bilimni nazorat qilish mexanizmiga o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotda alohida o'rin ajratilgan. Bilimni nazorat qilish mexanizmida o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning hamma mavzulari bo'yicha nazorat qilishni ta'minlash nazarda tutilgan. Buning uchun o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot ma'lumotlar bazasidagi barcha mavzularga oid savollarning hammasi talabalarga qulay ko'rinishda taqdim etilishi zarur.

O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotda berilgan matn bo'yicha uni izlab topish funksiyasining bo'lishi o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bu funktsiyaga qo'yiladigan qo'shimcha talablardan biri uning satriga etarli darajada uzun matnni kiritish imkoniyatining bo'lishini ta'minlashdan iborat. O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotda atamalar lug'atining bo'lishi undan samarali foydalanish darajasini oshiradi. Shuning uchun atamalar va ular bilan bog'liq ta'riflarni alohida ro'yhat bilan berib, ularni gipermurojatlar bilan bog'lash qulaydir. Bu erda atamalar lug'atidan asosiy matnga qaytish tugmalari bo'lishi kerak. O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot bilan ishlashni boshqarish tizimida matn bilan ishlashni ta'minlaydigan va ekranga qo'yilgan bir qator tugmalar mavjudki, ular mundarijadan mavzuga o'tish, sahifadan-sahifaga, oldinga, orqaga siljitish, mundarijaga qaytish, yordam olish, ekranga rasmlarni, animatsiyalarni va har xil ko'rinishdagi jadval, grafiklarni chaqiradigan gipermurojaat tugmalaridan iboratdir.

O'qitishning interaktivligini ta'minlash, o'quv fanlarini o'qitishning o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda, ma'lum bir tartibda bajarilishi kerak. O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot o'rganuvchiga takroriy o'quv-mashq amallarini bajarish va nazorat qilishning turli xil imkoniyatlarini yaratishi lozim.

Faol o'quv muloqoti asoslarini tashkil etish, bunda muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro bevosita aloqani, bog'liqlikni hisobga olgan holda, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot tayyorlanishi maqsadga muvofiq.

Interaktiv o'quv muloqotning asosiy tashkil qiluvchisi o'qitish ta'siri, unga mos holda, o'rganuvchi faoliyatining turi, mazkur faoliyat bajarilishining nazorati va uning natijasiga ko'ra o'qitish jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritish-aks ta'sirini amalga oshirish kerak bo'ladi.

O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yordamida amalga oshiriladigan elektron muloqotni tashkil etish tadbirlariga asosan amaliy mashg'ulotlar shaklida o'qitish jarayonini shakllantirish, o'rganuvchining o'qish faoliyatini shakllantirish, nazorat qilish, tanlangan javoblarning ma'qulligini tekshirish, matematik hisob-kitoblarning to'g'riligini tekshirish, grafik ma'lumotlarning kiritilishini nazorat qilish, cheklanmagan shaklda analitik ifoda kiritilishining nazorati kabilar kiradi.

O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratishni quyidagicha tamoyillarga ajratish mumkin:

- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratishning yaxlit-ilmiy uslubiy asoslari va texnikaviy talablarni ishlab chiqish;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratilishi zarur bo'lgan birinchi galdagi ustivor fanlarni aniqlash;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy kompyuter texnikasi bilan jihozlash, ularni internet(intranet kompyuter tarmog'iga kiritish);
- ta'lim muassasalarida o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlar yaratish bo'yicha jamoalar tashkil etish;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlar yaratuvchilarning mualliflik huquqlarini muhofazalash mexanizmini ishlab chiqish;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot mualliflari, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarni o'quv jarayoniga tadbiq qiluvchi professor-o'qituvchilar, mutaxassis-xodimlarni moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotni standartlash va sertifikatsiyalashning tashkiliy-huquqiy asoslarini barpo etish;

- eng yaxshi o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarni yaratish va qo'llash bo'yicha tanlovlar uyushtirish, mavjud muammolar bo'yicha ilmiy-amaliy seminar, konferentsiya va boshqa anjumanlar uyushtirish;
- oliy o'quv yurtlarida va oliy o'quv yurtlariaro o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot jamg'arma-kutubxonasini barpo qilish;
- o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlar yaratishda rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanish;
- butun dunyo virtual universitetlariga kirib borish va birgalikda faoliyat ko'rsatish.


Yuqoridagi fikr va mulohazalardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratish quyidagi 3 blok orqali amalga oshiriladi.

Birinchi blok – Axborot bloki

Ikkinchi blok – Vazifalar bloki

Uchinchi blok - Nazorat bloki.

Birinchi blokda ArchiCad grafik muharririga doir barcha ma'lumotlarni gipermatn ko'rinishida joylashtiriladi. Uni sxematik tarzda quyidagicha tasvirlashimiz mumkin.



Demak, verbal ko'rinishdagi o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotda eng avvalo grafik muharriri nomi, ya'ni ArchiCad, shu nomdan so'ng esa, mundarija, mualliflar va adabiyotlar bo'limi bo'lishi ko'zda tutilgan.

Mundarijada ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashga doir barcha ma'lumotlar - mavzular, ob'ekt turlari, ranglar bilan ishlash, ob'ektlar yaratish va har xil animatsiyalar kiritilishi kerak. Mualliflar bo'limida shu o'rgatuvchi

elektron dasturiy mahsulot mualliflari haqida to'liqroq ma'lumot berish kerakki, bu bo'linga kirganda foydalanuvchi o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot mualliflari to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lsin. Adabiyotlar bo'limida esa o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak. Bu talabning bo'sh vaqtida o'sha adabiyotlar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchi blokda-vazifalar blokida har bir mavzuga doir alohida-alohida bir necha vazifalar berilishi ko'zda tutilgan. Bu talabning mavzunini o'qish, tinglash bilan birga mavzuga doir bir qancha topshiriqlar olishiga va mustaqil ishlashiga katta yordam beradi.

Uchinchi bloki-nazorat blokida har bir mavzuga doir bir necha testlar bo'lishi kerak. Berilayotgan test savollari aynan shu mavzuga oid bo'lishi kattta ahamiyatga ega. Talaba mavzunini o'zlashtirib bo'lgach, o'zining mavzuni qanday o'zlashtirganini shu uchinchi blok orqali bilib olish mumkin. Shu bilan birga har bir testdan keyin o'zlashtirish reytingi berilib borilsa talabning o'z-o'zini baholash imkoniyati hosil bo'ladi. Bu ta'limda o'qituvchi-o'quvchi munosabatini emas, o'quvchi-kompyuter munosabatini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, har bir mavzu bo'yicha emas, har bir bo'lim yoki butun mavzular bo'yicha ham test savollarini kiritish mumkin. Bu bilan talaba butun mavzularni o'zlashtirib bo'lgach o'z bilimini sinab ko'rishi ham mumkin.

Nazorat blokini shunday yaratish mumkinki, talaba mavzuni talab darajasida o'zlashtirilmasa, keyingi mavzuga o'tib bo'lmasligi mumkin bo'lsin. Bunda talabning har bir mavzuni mukammal o'zlashtirishi talab qilinadi va shubhasizki, mavzularni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

1.3. O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarini yaratish va qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari hamda afzalliklari

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda turli axborot ta'lim resurslarni yaratishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Chunki, mustaqil ta'lim asosan ta'lim oluvchining mustaqil o'rganishiga asoslangan

o'quv faoliyati hisoblanadi. Hozirgi davrda mustaqil ta'lim uchun axborot ta'lim resurslari yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Mustaqil ta'lim olishda zamonaviy axborot texnologiyalari ya'ni kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar shu jumladan, ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot yaratish va qo'llashdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta'lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalari o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarini keng qo'llash, ularning ma'lum ma'noda kutubxonalarini tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirishdan iborat.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontseptsiyasida elektron darslikka quyidagicha ta'rif berilgan: “Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan elektron o'quv adabiyoti hisoblanadi”. Ta'lim olish jarayonida o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlar ham elektron darslik sifatida qo'llanilishi mumkin. Demak, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarni yaratish va qo'llashning asosiy maqsadi mustaqil ta'lim olishga qaratiladi.

ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot quyidagi hususiyatlarga ega bo'lishi kuzatiladi:

- o'rganilayotgan materialni an'anaviy o'quv adabiyotlariga nisbatan induktiv yondashish, eshitish va emotsional xotiralarga ta'sir qilish yo'llari bilan etkazish orqali tushunishni engillashtiradi;
- ta'lim oluvchilarning ehtiyojiga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga moslashtiriladi;
- o'quv predmetining mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko'p sondagi ma'lumotlarni va topshiriqlarni qarab chiqish va ko'proq amaliy masalalar

echishga imkon yaratgan holda murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etadi;

- o'rganishning barcha bosqichlarida o'zini-o'zi tekshirib ko'rish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi;
- ishni chiroyli, aniq rasmiylashtirishlarga va uni o'qituvchiga fayl yoki qog'ozga chop etgan holda topshirishiga imkon beradi;
- tajribali o'qituvchi vazifasini cheklanmagan tushuntirishlarni, sanoqsiz takrorlashlarni, eslatishlarni taqdim etgan holda bajaradi.

ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot ixtisoslashgan o'quv xonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi qulay imkoniyatlarni yaratadi:

- kompyuterli qo'llab-quvvatlashlardan foydalangan holda katta miqdordagi topshiriqlarni bajarishga, echimlarni va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan vaqtdan ozod bo'ladi;
- o'qituvchining rahbarlik va maslahatchi sifatida qatnashib kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg'ulot o'tkazish imkonini yaratadi;
- o'qituvchiga kompyuter yordamida ta'lim oluvchilar bilimini tez va samarali nazoratdan o'tkazishiga imkon beradi;
- o'qituvchiga nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'zining xohishi bo'yicha hajmi jihatidan kichik ammo tarkibi bo'yicha o'ta muhim bo'lgan materiallarni etkazishiga, ta'lim oluvchilarning auditoriya mashg'ulotlari doirasidan tashqari o'rganish mumkin bo'lgan masalalarni echishda mustaqil shug'ullanishlari uchun imkon yaratiladi;
- o'qituvchini uy topshiriqlari, turli hisoblashlarni va nazorat ishlarni tekshirish kabi mashaqqatli ishlardan ozod etadi;
- ta'lim oluvchilar bilan ayniqsa uy topshiriqlari va nazorat ishlari qismiga oid ishlashni individualashtirishga imkon beradi.

1.4. Ta'lim serveriga o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarni joylash uchun texnologiyalarni tanlash

Hozirgi vaqtda amaliyotda, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarini loyihalashda asosan quyidagi texnologiyalar qo'llaniladi:

- ma'lumotlar bazalari texnologiyalari (shu jumladan, multimediali) bilan birgalikda yuqori daraja dasturlash tilida loyihalash;
- gipermatnli texnologiyalar;
- ixtisoslashtirilgan instrumental vositalar yordamida loyihalash.

Yuqori darajadagi dasturlash tillaridan foydalanilganda, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot dasturiy kompleks sifatida amalga oshiriladi va ma'lumotlar bazasida saqlanadigan didaktik materiallardan foydalanishni ta'minlaydigan alohida bajariladigan modulni ifodalaydi. Bunday mahsulot ko'paytirishdan ham, testlash tizimiga ruhsatsiz kirishdan ham yuqori darajada himoyalangan bo'ladi. Bu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, yuqori darajadagi dasturlash tillari (Object Pascal, SQQ) dan va ma'lumotlar bazalarini boshqarishning kuchli tizimlaridan foydalanish, har qanday mualliflik g'oyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Boshqa texnologiyalar bu narsani juda murakkablashtirib yuboradi yoki amalda mumkin qilmaydi. Bundan tashqari, ArchiCad grafik muharririda ob'ektlar bilan ishlashni o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot interfeysi (oyna turi, elementlarning uning ichida joylashishi, shriftlar) har doim o'zgarmas bo'ladi, ayni vaqtda gipermatnli hujjatning tashqi ko'rinishi, turli dasturlardan ko'rish uchun foydalanilganda, jiddiy farq qilishi mumkin. O'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotni yangilash dastur kodini o'zgartirish bo'yicha mutaxassislarning jiddiy mehnatini talab qiladi, yuqori darajadagi tillarda dasturlarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan zamonaviy dasturiy ta'minot anchayin qimmat mahsulotdir. Bunda, dasturlash texnologiyalaridan foydalanib o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotni tayyorlash, loyihada pedagogga o'z qarorlarini tiqishtiradigan emas, balki u bilan konstruktiv dialogga tayyor bo'lgan yuqori malakali dasturchilar ishtirok etishini talab qiladi. Pirovardida, har bir o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot, yaratilishi paytida asosiy e'tibor sof texnik muammolarni hal etishga qaratiladigan noyob va qimmat mahsulotga aylanadi. Bunday faoliyat o'quv yurti yoki o'quv-metodik markaz strukturasida elektron o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlar tayyorlash

bo'yicha maxsus bo'linma bo'lgandagina maqsadga muvofiq. To'laqonli o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotini yaratish uchun eng keng imkoniyatlarni gipermatnli texnologiya beradi. Bunday darslikni loyihalashda, inson tafakkurining axborotni bog'lash qobiliyatiga va assotsiativ qator asosida undan tegishli foydalanishiga tayanib, giperhavolalar kiritish mumkin. Bu holda, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot o'zida dinamik gipermatn ham qo'shilishi mumkin bo'lgan gipermatnli hujjatni ifodalaydi. Uni yaratish uchun HTML, JavaScript, VBScript, Perl, PHP tillaridan va darslik ishlab chiqish jarayonini osonlashtiruvchi qo'shimcha dasturiy vositalar: vizual redaktorlar, gipermatn kompilyatorlari va shu kkbilardan foydalaniladi. Ushbu texnologiya asosida yaratilgan o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotning afzalligi, olingan mahsulotning platformaviy (dasturiy) bog'liq emasligi, shuningdek, uni o'quvchilarga taqdim etishning universalligida: o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot flesh xotiraga yoki kompakt-diskka yozilishi, Internet tarmog'i orqali yoki o'quv yurtining lokal tarmog'ida tarqatilishi mumkin. Bundan tashqari, bu o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarni takomillashtirish oson, mazmuni juda tez o'zgaradigan (informatika, qonunchilik masalalari va sh.k.) o'quv fanlari uchun bu juda muhim. Amalda o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotni ruxsatsiz ko'paytirishdan, test kalitlarini deshifrlashdan muhofaza qilishning mavjud emasligi bu texnologiyaning kamchiliklaridir. Uchinchi yondashuvning o'ziga xosligi oraliq holat bilan belgilanadi. Bunda o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotni loyihalash maxsus instrumental dasturiy vosita yordamida amalga oshiriladi. Ushbu holatda, o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotni yaratish va qo'llashdan oldin instrumental vosita – uslubiy ta'minot avvaldan strukturalangan materiallarini ko'zda tutilgan shaklga keltirish imkonini beradigan maxsus dastur ishlab chiqiladi. Ko'pgina hollarda, bunday o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulot mohiyatan, multimedia ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi hisoblanadi. Maxsus so'rovlar bo'yicha zarur axborotni izlab topish uchun mo'ljallangan maxsus tillarni saqlab turish, shuningdek, topilgan axborotni o'quvchi uchun qulay ko'rinishda taqdim etish, bu tizimning asosiy funktsiyalari hisoblanadi.

So'nggi yillarda, HTML texnologiyasi taqdim etadigan imkoniyatlarni kengaytiradigan turli dasturiy komplekslar ishlab chiqildi va ommaviylashdi.

Ularning afzalligi, o'zlashtirishning osonligi bo'lib, pedagoglarga bevosita professional gipermatnli o'quv vositalari yaratish imkoniyatini beradi. Turli hujjatlarni gipermatnli hujjatlarga oson aylantirish imkonini beradigan Microsoft Office (Microsoft Word, Microsoft FrontPage) ommaviy paketidan bo'lgan dasturlardan tashqari, qulay navigatsiya va axborotni izlash tizimiga ega o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlarni yaratish uchun maxsus mo'ljallangan vositalar ham mavjud. Microsoft korporatsiyasi Microsoft Internet Explorer gipermatnli hujjatlarni ko'rish dasturi asosida, o'z mahsuloti uchun, kiritilgan ma'lumotnoma tizimlari – Microsoft HTML Help tizimiga o'tish g'oyasini faol joriy qilmoqda. Axborotni qayta ishlashning universal tili maqomini asta-sekin egallayotgan HTML tili yagona g'oyani joriy qilish bo'yicha keng imkoniyatlar beradi. Bu yondashuv nafaqat qandaydir dasturiy mahsulotning ma'lumotnoma tizimi uchun, balki turli elektron o'quv qo'llanmalari yoki Windows foydalanuvchilari uchun odatiy bo'lgan, standart navigatsiya va izlash tizimiga ega, yaxshi strukturalangan katta hujjatlarni yaratish uchun ham yaroqlidir. Bu mulohazalar pedagoglarning o'z kuchi bilan, turli o'rgatuvchi elektron dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish uchun mo'ljallangan, erkin tarqatiladigan Microsoft HTML Help Workshop instrumental vosita negizida Microsoft HTML Help tizimidan keng foydalanishga asos bo'lib xizmat qiladi.

II-BOB. ARCHICAD GRAFIK MUHARRIRIDA OB'EKTLAR BILAN ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Archi CAD grafik muharriri haqida va uni o'rnatish uchun shaxsiy kompyuter sistemasiga qo'yiladigan talablar

ArchiCAD - Graphisoft firmasi tomonidan yaratilgan SAPR uchun grafik dasturiy ta'minot dasturi. Me'morchilik va qurilish tuzilmalari va yechimlari, shuningdek, landshaft elementlari, mebellar va boshqalarni loyihalash uchun mo'ljallangan dastur hisoblanadi. ArchiCAD dasturining birinchi versiyasi 1984 yilda Radar CH nomi ostida yaratilgan. U Apple Lisa kompyuterlarida ishlagan va suv quvurlarini loyihalash bo'yicha dastur hisoblangan. Dasturda ishlashda virtual binoning kontsepsiyasi qo'llaniladi. Buning mohiyati shundaki, ArchiCAD loyihasi kompyuterning xotirasida mavjud bo'lgan haqiqiy binoning keng ko'lamli, keng miqyosli modeli hisoblanadi.

- | | |
|--------------------------------|--------------------------------|
| 1. <u>1987</u> — ArchiCAD 3.0 | 13. <u>1999</u> — ArchiCAD 6.5 |
| 2. <u>1988</u> — ArchiCAD 3.1 | 14. <u>2001</u> — ArchiCAD 7.0 |
| 3. <u>1989</u> — ArchiCAD 3.3 | 15. <u>2002</u> — ArchiCAD 8 |
| 4. <u>1990</u> — ArchiCAD 3.4 | 16. <u>2003</u> — ArchiCAD 8.1 |
| 5. <u>1991</u> — ArchiCAD 4.0 | 17. <u>2004</u> — ArchiCAD 9 |
| 6. <u>1992</u> — ArchiCAD 4.1 | 18. <u>2006</u> — ArchiCAD 10 |
| 7. <u>1993</u> — ArchiCAD 4.16 | 19. <u>2007</u> — ArchiCAD 11 |
| 8. <u>1994</u> — ArchiCAD 4.5 | 20. <u>2008</u> — ArchiCAD 12 |
| 9. <u>1995</u> — ArchiCAD 4.55 | 21. <u>2009</u> — ArchiCAD 13 |
| 10. <u>1996</u> — ArchiCAD 5.0 | 22. <u>2010</u> — ArchiCAD 14 |
| 11. <u>1997</u> — ArchiCAD 5.1 | 23. <u>2011</u> — ArchiCAD 15 |
| 12. <u>1998</u> — ArchiCAD 6.0 | 24. <u>2012</u> — ArchiCAD 16 |

ArchiCAD dasturini o'rnatish uchun shaxsiy kompyuter sistemasiga qo'yiladigan talablar.


ArchiCAD 12 dan boshlab, ko'p yadroli protsessorlar hisoblash ish faoliyatini yaxshilash uchun tavsiya etilgan standart platformaga kiritilgan. Bu, ayniqsa, navigatsiya operatsiyalarini amalga oshirishda va ko'lamlarning kamayib ketishini hisobga olgan holda, 3D modelini qurishda, shu jumladan, kesiklarni qurishda aks ettirilgan.

Asosiy tizim talablari:


- Mac OS-Makintosh: OS X 10.5 yoki 10.6 Snow Leopard; Mactel: Har qanday Intel protsessorli Macintosh;
- Windows-OS: Microsoft Windows 7, Windows XP, Vista Business;
- Kompyuter xotirasidan kamida 3 GB bo'sh joy; Tezkor xotira: kamida 512 MB; ArchiCAD o'rnatuvchisi kompyuterda bo'lmasa Java 1.6 va QuickTime 7 ni avtomatik ravishda o'rnatadi.

ArchiCAD grafik muharririning ishchi sohasi va asboblari paneli

ArchiCAD grafik muharririni ishga tushirilganda ekranda dasturning muloqot oynasi paydo bo'ladi (2.1.1-rasm). Bu muloqot oyni ishni boshlashda yordam beradi. Kerakli komponentni tanlangan so'ng ArchiCAD grafik muharririning ishchi oynasi paydo bo'ladi (2.1.2-rasm).




2.1.1-rasm. ArchiCAD grafik muharririning muloqot oynasi



2.1.2-rasm. ArchiCAD grafik muharririning ishchi oynasi



ArchiCAD grafik muharririning ishchi oynasining yuqori qismida menyular qatori, standart buyruqlar bo'limi, loyiha ko'rinish turlari va oynaning chap tomonida asboblar paneli mavjud.

Biz quyida ArchiCAD grafik muharririning asboblar paneli bilan tanishib chiqamiz. ArchiCAD grafik muharririning asboblar paneli asosan 4 ta bo'limdan iborat (2.1.3-rasm).













2.1.3-rasm. ArchiCAD grafik muharririning asboblar paneli

«Выборка» - «Belgilash» bo'limi

№	Belgilanishi	Vazifasi
1.		Ko'rsatkich - bu buyruq bilan ob'ektlarni belgilash, surish, nusxa olish kabi amallarni bajaradi.
2.		Ramka - bu buyruq tanlanganda ob'ektlarni ramka asosida belgilash xususiyati aktivlashadi.

«Конструирование» - «Loyihalashtirish» bo'limi

№	Belgilanishi	Vazifasi
1.		Devor - haqiqiy devorning analoglari, ko'pburchak, to'g'ri (ixtiyoriy shakilda) bo'lishi mumkin.
2.	 	Eshik va Derazalar - ushbu uskunadan foydalanib ob'ektlarga ixtiyoriy ko'rinishdagi eshik va derazalarni o'rnatishingiz mumkin bo'ladi.
3.	 	To'sin va Ustunlar - bu uskunadan loyihamizning ham asosini qurishda ham bezak ishlarida foydalanishimiz mumkin.
4.		Yopqichlar - ushbu uskunadan foydalanib ob'ektlarga ixtiyoriy ko'rinishdagi yopqichlarni o'rnatish mumkin bo'ladi.
5.		Zinalar - bunda biz ko'p qavatli binolarga xoxlagan dizaynimizdagi zinalarni joylashimizda foydalanamiz.
6.		Tom - bu uskunadan chizayotgan ob'ektimizni tom qismini qurishimizda foydalanamiz.
7.		Bu asbob 15-versiyada paydo bo'lgan bo'lib bunda asosan tarixiy va zamonaviy binolar uchun erkin shakillarning me'moray xajmlari keng doirasini modellashga imkon beradi.
8.		Ochiq tirqich - ushbu uskunadan foydalanib ob'ektlarga

		ixtiyoriy ko`rinishdagi ochiq tirqichlarni o`rnatish mumkin bo`ladi.
9.		Ob`ektlar - umumiy maqsadlardagi parametric elementlar (odamlar,daraxtlar,avtomobillar,mebellar va boshqalar).
10.		3D panjara - bu asosan geografik joylashuvni yaratish uchun ishlatiladi.

2.2. Archi CAD grafik muharririda islash asoslari: operatsiyalar va tasvirni boshqarish

Archi CAD tizimida bir necha koordinata tizimlari mavjud bo`lib ular quyidagilardan iborat:

- 1) **Loyiha koordinata tizimi** - uning boshlanishi qalin qora shaklida bo'ladi, shu jumladan, display ekranining maydonida fazoviy har qanday joyda bo'lishi mumkin;
- 2) **Dizayn jarayonida** – uni asosan ko'p ishlatiladi, u foydalanuvchining koordinata tizimi (UCS) deb ataladi;
- 3) **Jarayonda avtomatik ravishda** – u mahalliy koordinata tizimi yaratiladi. Bir nechta chiziqli segmentlarni chizishda ishlatiladi.

Kursorning rasmini o'zgartirish haqida


Kursorni chizilgan segmentning chizig'iga qo'yiladi va kursor ko'rsatkichi o'zgardi. Kursor ko'rsatkichi Mercedes deb ataladigan bir vilka shaklini oladi. Ikki kesishgan chiziqlarni chizib, kursorni chiziqlar kesishgan nuqtaga o'rnatiladi. Kursor qora rangdagi plussimon shaklga aylanadi.

Dizayn jarayonida kursor ko'proq narsani talab qilishi mumkin. Dizaynerga yordam beradigan o'ttiz xil turdagi kursorni xarakterli nuqtalarga konstruktiv joylashuvini ko'rish mumkin. Tizimni o'rganishning boshlang'ich bosqichida

ko'pincha foydalanuvchiga ma'lum bo'lgan kursorning tasvirlari bilan bir qatorda, rasmlarni ham uchratish mumkin.

Ekran hususiyatlarini sozlash

Ekran hususiyatlarini sozlash uchun menyular qatoridan Параметры bo'limini tanlanadi. Paydo bo'lgan kontekstli menyudan Сетки и фон punktini tanlanadi. Ekranда Сетки и фон deb nomlangan oyna paydo bo'ladi (2.2.1-rasm). Bu oynada ekranning hususiyatlariga o'zgartirishlar kiritish uchun maydonlar belgilab qo'yilgan. Ekran to'rining yirik yoki mayinligini, to'rning qiyalik gradusini, to'r chiziqlari orvasidagi masofalarni va ekran foni rangini o'zgartirish uchun turli xil o'lchamlar berilgan. Bu o'zgartirishlarni kiritib OK tugmasini bosish kerak bo'ladi. Bu o'zgartirishlarni amalga oshirishdan maqsad, foydalanuvchi o'zi uchun qulayliklarni yaratib olishi kerakligidadir.



2.2.1-rasm. Сетки и фон ойна


Ekranда to'rni ko'rinmas holatiga ham keltirib qo'yish mumkin. Buning uchun Сетка экрана (Grid display) buyrug'i yoqilmagan bo'lishi mumkin.

ArchiCad tizimida operatsiyalarni boshqarish

ArchiCad tizimida qulay asosiy vosita operatsiyalarni boshqarish bo'lib, ular ikki xil bo'ladi:

1. Koordinatali ekran
2. Boshqaruv paneli.

1. Koordinatali ekran - joriy oqimning koordinatalarini va chizilgan kursorning joylashuvini ko'rsatadi (2.2.2-rasm). Bundan tashqari u raqamli koordinatalarni to'g'ridan-to'g'ri kiritishga ruxsat beradi.



2.2.2-rasm. Koordinatali ekran paneli

Koordinatalarni muvofiqlashtirish uchun foydalanuvchi koordinatalar tizimining boshlanishini yaratishi kerak. Buning uchun koordinatali ekran panelidagi birinchi tugmani bosish kerak. Foydalanuvchi koordinata tizimining boshlang'ich o'rnini belgilashi uchun ekranning biron-bir joyiga sichqonchani olib kelib, "D" belgisini bosishi kerak. Shunday qilib display rejimida tegishli kartezyen oynasini ochiladi. Ekranda ikon tugmachasi bosilmasa, unda u joyning mutlaq koordinatalarini ko'rsatadi.

Koordinatali ekran yordamida nuqta koordinatalarini kiriting


Koordinatalar paneli yordamida chiziqli segmentni chizish uchun chiziq vositasini yoqib, kursorni ekranning ixtiyoriy joyiga qo'yiladi. Sichqoncha tugmasini bir marta bosiladi, so'ngra klaviaturada X harfini kiritiladi. Koordinatalar panelidagi mos keladigan satrdan keyin ko'k rangga aylanadi, klaviaturada X koordinatasining qiymatini yoziladi. So'ng ENTER tugmasini bosiladi. Ekranda chiziq segmenti chiziladi.

Loyihani amalga oshirish jarayonida chizma chizishda koordinatali ekran elementlari tez-tez ishlatiladi. Chap tomonda koordinatali ekran konfiguratsiyani o'zgartirish uchun tugmalar mavjud. Ekranning panjara va joylashishini aniqlash rejimini yoqish uchun uchta tugma mavjud (2.2.2-rasm). Bu tugmalarning birinchisi




ekran to'ring joylashishini aniqlaydi. Ikkinchi tugma ekran to'ring qadam joylashishini aniqlaydi. Uchinchi tugma kursor joylashishini aniqlaydi.

Boshqaruv paneli

Boshqarish paneli bir necha nazorat tugmalariga ega (2.2.3-rasm). Bu nazorat tugmalari turli xil funksiyalarni amalga oshiradilar.



2.2.3-rasm. Boshqaruv paneli



- | | |
|---|--|
|  | - yo'nalishlarni yoqish va o'chirish |
|  | - hidoyat liniyasi segmentini yaratish |
|  | - 7 turdagi elektron RESISS, ular tugmaning pastki qismida joylashgan qora ko'rsatkichni bosilsa paydo bo'ladi |
|  | - kursorni loyihalash uchun variantlar |
|  | - guruhlarga ruxsat berish va bekor qilish |
|  | - sehrli tayoq |
|  | - maxsus joylarda joylashishni aniqlash |
|  | - maxsus joylashuv punktlari menyusi |
|  | - OK tugmasi |
|  | - Bekor qilish tugmasi. |

Tasvirlarni boshqarish

Tasvirlarni boshqarish, o'lchagich yordamida amalga oshiriladi. U ishchi oynaning pastki qismida joylashgan (2.2.4-rasm). Bu panel ruxsat beruvchi bir qator tugma va piktogrammalarni o'z ichiga oladi.




2.2.4-rasm. Tasvirlarni boshqarish paneli

- | | |
|---|---|
|  | - navigator |
|  | - navigator planshet |
|  | - operatsion ko'rsatkichlar |
|  | - bu tugma doimo oqimni ko'rsatadi, rasmni kattalashtirish darajasini tabiiy foizda ko'rsatish miqdori. |
|  | - Sichqoncha tasvirni kattalashtirishga yordam beradi, bunda rasm chizmasi o'zgarmaydi. |
|  | - zoom darajasi tugmasi |
|  | - plus belgisi kattalashtirish |
|  | - minus belgisi - kamaytirish |
|  | - sahifani gorizontal va vertikal tarzda ko'chirish |
|  | - ekranni moslashtirish tugmasi |

2.3. Archi CAD grafik muharririda devor vositasi bilan ishlash

ArchiCAD grafik muharriridagi devor faqatgina chizma emas, balki aniq dizayn va me'moriy jihatdan uch o'lchamli ishlov berilgan elementdir. Binoni o'rnatish uchun devorning kengaygan qismi tayyor bo'lishi kerak. Fazoziy ma'noda,


to'liq qurib bitkazilgan devorni qurilish krani bilan ko'tarib devorni aniq qilib qo'yish mumkin. Ularning faoliyatini aksonometrik yoki istiqbolli shaklda darhol ko'rishimiz mumkin. Ular prognozlar yoki hatto haqiqiy fotosurat ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Agar devor bizga yoqmasa, biz uni darhol olamiz. Bino prefabrik bo'lsa, avval biz uni uch o'lchamli korinishda tayyorlaymiz. Prefabrik tuzilmalar (panellar, poydevorlar, va hokazo) qurilish muhandislari chizmalar sifatida ishlatadilar. Har qanday batafsil ma'lumotga ega bo'ladilar. Devorning xususiyatlarini o'zgartirish uchun "Параметры стены по умолчанию" muloqot oynasidan foydalaniladi (2.3.1-rasm).



2.3.1-rasm. Devorning xususiyatlarini o'zgartirish oynasi


Ushbu muloqot oynasidagi nimani ko'rish mumkin? Devor materiallari - g'isht oddiy va qizil. Devor qalinligi 640 mm. Devor sirlari markaziy oqning ichki tomondan 200 mm masofada o'tadi. Devorning balandligi 3000 mm. Daraja 1-qavat nolga teng. Devorning ichki yuzasi oqlangan. Ochiq joyning sirti qizil g'ishtdan. Devorga "Devor" deb nomlangan qatlam chizma bajariladi. Devorning tashqi konturi chiziq bilan o'ralgan. U qora rangda, to'lg'azish kulrang rangda, tonini ko'mish rang orqali amalga oshiriladi.

